

LALMIKOR DEHQONCHILIK ILMIY TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI PhD.05/31.10.2025.Qx.198.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

LALMIKOR DEHQONCHILIK ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UO'K: 633.853.483+631.52

MAVLANOV LAZIZ BAXTIYOR O'G'LI

**LALMIKOR MAYDONLAR UCHUN XANTALNING (*Sinapis alba* L)
QURG'OQCHILIKGA CHIDAMLI VA MAHSULDORLIK BELGILARI
YUQORI NAVINI YARATISH**

06.01.05 - Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha dissertatsiya himoyasisiz
seleksiya yutug'i (ixtiro patenti) asosida qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun

T A Q D I M O T I

Ilmiy rahbar:

q.x.f.f.d.(PhD) D.Y.Musirmanov

G'allaorol-2025

KIRISH (taqdimot (ixtiro patenti)ning annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda xantal (*Sinapis alba L*) o'simligi dunyo dehqonchiligida jami 971,6 ming gektar maydonga joylashtirilib, o'rtacha 910,9 mln tonna urug' hosili yetishtirilmoqda. "Xalqaro FAO tashkilotining ma'lumotiga ko'ra dunyoda Xantal (*Sinapis alba L*) o'simligi yetishtirishda Kanada (170,7 ming t), Rossiya (171,5 ming t), Nepal (208,5 ming t), Malayziya (146,1 ming t), Ukraina (76,9 ming t), AQSH (67,7 ming t), Myanma (35,9 ming t), Xitoy (18,8 ming t) va Qozog'iston (114,6 ming t) kabi davlatlar yetakchilik qilib, olinayotgan yalpi hosilning 80,6 foizi ushbu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi".¹ Ushbu yetakchi mamlakatlarda xantal ekinini yetishtirishda turli iqlim sharoitlarga mos, yuqori samaradorlik ega yangi navlarni ekish va samarali agrotexnologiyalarni qo'llash hisobiga yuqori natijalarga erishilmoqda. Xantalning ertapishar, issiqlik va qurg'oqchilikka chidamli, serhosil, urug' tarkibida moy chiqimi yuqori yangi navlarini yaratish bugungi kunda dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda xantal moyli o'simlik sifatida eng ko'p ishlatiladigan o'simliklardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda xantal eng ko'p tarqalgan moyli ekinlardan biri bo'lib, kungaboqar, soya va moyli zig'irdan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Oxirgi 10 yilda jahonda xantalning maydoni 0,7 dan 1,1 mln.gektarga ortdi. Jahon mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, mavjud yer maydonlaridan samarali foydalangan holda mintaqa iqlimidan kelib chiqib, xantalni yetishtirishda samarali va innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda issiqlikka, qurg'oqchilikka, kasallik va zarakunandalarga chidamli, hosildorligi hamda moy chiqimi yuqori yangi navlarini yetishtirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan, ertapishar, yuqori hosildor, tarkibida moy chiqimi yuqori navlarni yaratish hamda ilmiy asoslangan yetishtirish texnologiyalarni ishlab chiqish katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://www.fao.org/worldfoodsituation/csdb/ru>

Respublikamiz aholisining o'simlik moyiga bo'lgan yillik ehtiyoji 483 ming tonnani tashkil etib, mazkur miqdorning 251 ming tonnasini mahalliy xom-ashyo, 45 ming tonnasini import xom ashyosi hisobiga ishlab chiqarilgan o'simlik moyi hisobiga qoplanadi, shuningdek yiliga o'rtacha 187 ming tonna import qilingan tayyor o'simlik moyi aholi iste'moli uchun yo'naltiriladi. Respublikamizda iste'mol qilinayotgan o'simlik moyining 230 ming tonnasini kungaboqar moyi, 203 ming tonnasini paxta moyi, 48 ming tonnasini zig'ir, palma, maxsar, zaytun va boshqa moylar tashkil etadi, shundan O'zbekistonda yiliga kishi boshiga 12,4 kg o'simlik moyi to'g'ri keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib xantalning yangi, issiqlik va qurg'oqchilikka, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yuqori hosilli, tarkibida moy chiqimi yuqori bo'lgan navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida»^{gi2}, 2022 yil 28 yanvardagi PQ-106-sonli «Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»^{gi3} Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi sohasida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasini ta'minlash va sabzavot, poliz, dukkakli, ozuqa va moyli ekinlarning mahalliy seleksiya navlari urug'chiligini yo'lga qo'yish hamda 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-sonli «Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida» qarorlaridagi⁴ belgilab berilgan vazifalarni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot taqdimoti fan va texnologiyalar

² <https://lex.uz/docs/-4567334>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-5840120>

⁴ <https://lex.uz/docs/-5125714>

rivojlanishining V ustuvor yo‘nalishi — «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» doirasida amalga oshirilib, mazkur sohalaridagi ilmiy-amaliy masalalarni hal etishga qaratilgandir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xantalning ertapishar, issiqlikka, qurg‘oqchilikka, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, yuqori hosilli va tarkibida moy chiqimi yuqori bo‘lgan navlarini yaratish va ularni parvarishlash texnologiyalarini takomillashtirish masalalari yuzasidan xorijiy mamlakatlarda N.I.Annenkov., A.N.Beketov, I.I.Kanonnikov., A.A.Lipskiy, D.I.Mendeleyev, V.T.Sobichevskiy, Ye. N Sinskaya, V.L.Komarov, S. S.Jirnix, V. P.Naumkin, N. I.Velkova (Rossiya), Z. Wu (Xitoy), P.Reyven(AQSh) va boshqa ko‘plab taniqli olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Respublikamizda esa X.N.Ataboyeva, D.Yormatova, R.Oripov, N.Xalilov va G.Obruyevlar tomonidan o‘rganilgan.

Biroq, respublikaning lalmikor maydonlarida ekish uchun noan‘anaviy ekin xantal (*Sinapis alba* L) ning ertapishar, issiqlikka, qurg‘oqchilikka, kasallik va zararkunandalarga bardoshli, yuqori hosilli va tarkibida moy miqdori yuqori bo‘lgan navlarini yaratish bo‘yicha yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Taqdimot mavzusining, taqdimot bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari, rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqotlar Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot intituti Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasining «Boshqali va dukkakli don, yem-xashak, moyli hamda noa‘nanaviy ekinlarni tog‘li mintaqalarining iqlim-sharoitga mos serhosil nav va namunalarni tanlash va istiqbolli navlarning boshlang‘ich urug‘chiligini olib borish» mavzusidagi tadqiqotlar doirasida bajarilgan (2021-2023 yy.).

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning maqsadi. Respublika lalmikor maydonlari uchun noan‘anaviy xantal (*Sinapis alba* L) ekin turining tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli, hosildorligi va moy miqdori yuqori bo‘lgan navini yaratish.

Tadqiqot (ixtiro patenti) ning vazifalari: Xantal (*Sinapis alba L*) ning kelib chiqishi turli mintaqalarga mansub yangi nav namunalarining biologik xususiyatlari hamda qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganish;

- qurg‘oqchilikka chidamli, hosildorligi va moy miqdori yuqori bo‘lgan manbalarini tanlash;

- tanlab olingan manbalar asosida sifat ko‘rsatkichlari (moy miqdori) yuqori, qimmatli belgi va xususiyatlarga ega bo‘lgan nav va manbalarini yaratish, nav sinovlarini o‘tkazish va davlat nav sinoviga topshirish;

- yangi yaratilgan qurg‘oqchilikka chidamli, hosildor va moy miqdori yuqori bo‘lgan navning urug‘chilik tizimini shakllantirish va ishlab chiqarishga joriy etish;

Xantal (*Sinapis alba L*) ni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash hamda yangi navga intellektual mulk agentligining patentini olish.

Tadqiqot (ixtiro patenti) ob’ekti sifatida Rossiyaning B.C.Пустовойт nomidagi moyli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutidan keltirilgan 30 ta kolleksiya nav namunalaridan foydalanildi.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning predmeti. Xantal (*Sinapis alba L*) ning qimmatli-xo‘jalik va morfobiologik belgilari, navlarining hosil elementlari, hosildorligi hamda moy miqdorini baholash hisoblanadi.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning usullari. Dala tajribalarini joylashtirish O‘ZPITI Toshkent (2007) uslubidan, barcha agrotexnik tadbirlar DDEITI G‘allaorol ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan (1994 y) ishlab chiqilgan tavsiya va uslublar asosida, fenologik kuzatuvlar, dala va laboratoriya sharoitida turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholashlar, tahlillar qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasi (1989 y) uslubiy qo‘llanmalar asosida, qurg‘oqchilikka chidamlilikni laboratoriya sharoitida N.I.Kojushka (1987) usulida, urug‘ tarkibidagi moy miqdorini aniqlash Сокслет ekstraksiyasi usulida, ma‘lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida Б.А.Доспехов dispersion uslub asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot (ixtiro patenti)ning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Respublikamizning markaziy mintaqasi (Jizzax viloyati) iqlim sharoitida xantal (*Sinapis alba L*) ning chetdan introduksiya qilingan Nika (st) Arletta, Bella, Bravo, Kristall, №1/2019, №3/2019, №4/2019, №5/2019, №9/2019 nav namunalarining morfobiologik va qimmatli xo‘jalik belgilari baholangan;

Xantal (*Sinapis alba L*) kolleksiya nav namunalarining o‘suv davri davomiyligi bo‘yicha ertapishar bo‘lgan 1 ta №5/2019 namunasi 88 kun bo‘lgan bo‘lsa, andoza “Nika” navida esa 92 kun bo‘lganligi kuzatilgan, bu esa andoza “Nika” navga nisbatan 4 kun ertapishar ekanligi aniqlangan;

Xantal (*Sinapis alba L*) nav namunalarining yuqori urug‘ hosildorligi bo‘yicha 7 ta Bella, Bravo, Kristal, №5/2019, №4/2019, №9/2019 nav namunalari ajratib olindi hamda urug‘ hosildorligi 7,3-9,1 s/ga bo‘lib, andoza “Nika” naviga (6,9 s/ga) nisbatan 0,4-2,2 s/ga yuqori ekanligi aniqlangan;

Xantal (*Sinapis alba L*) nav namunalarining moy miqdori yuqori bo‘lgan 6 ta Arletta 37,3%, Bella 37,2%, Kristal 36,2%, №5/2019 38,1%, №3/2019 36,1%, va №9/2019 36,2% ni, andoza “Nika” navida 35,1% bo‘lib, ushbu nav va namunalar moy miqdori andoza “Nika” naviga nisbatan 1,0-3,0% gacha yuqori ekanligi aniqlangan;

Xantal (*Sinapis alba L*) ertapishar, hosildorligi hamda moy miqdori yuqori yangi “Baxmal-70” navi yaratilgan hamda Intelektual mulk agentligidan seleksiya yutug‘iga 31.07.2025 yil NAP 570 raqamli patent olingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) ning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xantal (*Sinapis alba L*) ni Rossiyaning B.C.Пустовойт nomidagi moyli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutidan keltirilgan №5/2019 nav namunasi seleksiya jarayoni uchun ertapishar, hosildorligi va moy chiqimi yuqori bo‘lganligi uchun tanlab olingan;

Yangi yaratilgan “Baxmal-70” navi Respublikamizning Jizzax viloyati G‘allaorol va Baxmal tumanlari fermer xo‘jaliklarida, jami 14,0 gektar maydonga joriy etilgan.

Bundan tashqari 2025-yil O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestriga xantal (*Sinapis alba L*)

ning “Baxmal-70” navi kiritildi va №2025-785 raqamli guvohnoma olingan;

Intellectual mulk agentligidan Xantal (*Sinapis alba* L) ning “Baxmal-70” naviga 31.07.2025 y. NAP 570 raqamli patent olingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining ishonchliligi. Dala tajribalari qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy Markazi hamda Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rikdan o‘tkazilgan, ilmiy kengashda ma‘ruza qilingan. O‘tkazilgan dala va laboratoriya tajribalari har yili Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tuzilgan uslubiy va aprobatsiya komissiyasi xulosalariga ko‘ra ijobiy baholanganligi va birlamchi hujjatlarning mavjudligi, nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga mos kelishi, ilmiy tadqiqot ishlarining statistik tahlil qilinganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Olib borilgan tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati morfobiologik va xo‘jalik belgilari bo‘yicha xantal (*Sinapis alba* L) navlariga baho berilganligi, ertapishar, yuqori hosildor, moy miqdori yuqori bo‘lgan manbalarining ajratilganligi va yangi istiqbolli rayonlashgan “Baxmal-70” navining iqtisodiy samaradorligi 60,6-76,6% ekanligini ilmiy asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Xantal (*Sinapis alba* L) ning ertapishar, mahsuldorlik ko‘rsatgichlari yuqori, urug‘ hosildorligi boshqa navlarga nisbatan 1,0-1,4 s/ga hamda moy miqdori 3,0-3,7 % yuqori bo‘lgan, respublikaning barcha sug‘oriladigan va lalmikor maydonlari uchun “Baxmal-70” navi yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining joriy qilinishi. Lalmikor maydonlar uchun xantalning (*Sinapis alba* L) qurg‘oqchilikga chidamli va mahsuldorlik belgilari yuqori navini yaratish mavzusi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutidagi qishloq xo‘jalik ekinlari Milliy genbankiga geneofondni boyitish, hozirgi va kelajak avlod uchun

kafolatli saqlash maqsadida topshirilgan va №3 katalog raqami bilan ro'yxatga olinib, nav namunalar bilan boyitilgan (ma'lumotnoma № 06/01.03.235-son 2025-yil 5-may).

Lalmikor maydonlarda ekish uchun qurg'oqchilikga chidamli va mahsuldorlik belgilari yuqori bo'lgan xantalning "Baxmal-70" navi Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash markazining konkurs sinov natijalari va Ekspert komissiyasining hulosasiga ko'ra 2025-yildan Qishloq xo'jalik ekinlari davlat reyestriga kiritilgan (ma'lumotnoma № T 6/02-09-371 2025-yil 14-may).

Xantal (*Sinapis alba L*) ning "Baxmal-70" navi Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti markaziy tajriba maydonlariga 5 gektar, Savruk va Oyqar g'allasi fermer xo'jaliklarida 4 gektar va Baxmal tumanida Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasining markaziy tajriba maydoniga 3 gektar xamda Shoybekov Xamidullo fermer xo'jaligida 2 gektarga jami 14 gektar maydonda amaliyotga joriy qilingan. Natijada Jizzax viloyati sharoitida gektaridan o'rtacha 700-770 kg hosil olinib, 2324,0-2940,0 mln so'm sof daromad olishga erishilgan. Buning natijasida iqtisodiy samaradorlik 60,6-76,6% bo'lganligi aniqlangan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining aprobatsiyasi. Dala tajribalari Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovasiyalar milliy markazi va Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti aprobatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan.

Tadqiqot (ixtiro patenti) natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan maxalliy ilmiy nashrlarda 2 ta, xalqaro jurnalda 1 ta maqola, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarining to'plamlarida tezislar nashr qilgan.

I-BOB. TADQIQOT (IXTIRO PATENTI) NING ASOSIY MAZMUNI

Dunyo aholisining soni tez sur'atda o'sib borishi bilan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Hozirgi kunga kelib, dunyo aholisining soni 8 mlrd. ga yaqinlashmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bu ko'rsatkich 2050 yilga borib 9,5 mlrd ga etishi kutilmoqda. Bu esa inson ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarga bo'lgan talabning toboro oshib borishiga sabab bo'ladi. O'zining shifobaxsh, mineral va vitaminlarga boy, oziq-ovqat, sanoat va formasevtikada keng ahamiyatga ega, ko'pchilikka notanish bo'lgan noana'naviy ekin turlaridan biri bu xantal (*Sinapis alba* L) o'simligi alohida ahamiyatga ega ekinidir.

Respublika aholisini ekologik toza moy mahsulotlari bilan ta'minlashda lalmikor yerlarda yetishtiriladigan moyli ekinlar muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda lalmi yerlarda kungaboqar, maxsar, zig'ir va kunjut kabi moyli ekinlarning maydoni kengayib bormoqda. Shu bois moyli ekinlar turlarini kengaytirish, yangi noan'anaviy ekinlarni iqlimlashtirish, hosildorligini tubdan oshirishga qaratilgan innovasion agrotexnologiyalarni qishloq xo'jaligiga keng joriy qilishni taqozo etadi. Shu o'rinda soxa mutaxassislari tomonidan yangi noana'naviy ekin turlari bilan ishlash, lalmikor mintaqalarning tuproq iqlim sharoitlariga mos yangi navlarini yaratish kabi muhim vazifalarni qo'yimoqda.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida o'tgan asrning 40-50 yillarida boshlangan seleksiya ishlari bevosita davom ettirilib, moyli ekinlarining yangi nav namunalarini to'plash, ularning orasidan noqulay tashqi muhit sharoitlariga chidamli nav namunalarini tanlab olish, shular asosida seleksiya ishlarining uzluksizligini ta'minlashdan iborat. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda mahsuldorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan tarkibida moy miqdori yuqori, yangi navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tajriba maydonining tuproq-iqlim sharoiti. Tajribalar Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasining markaziy tajriba xo'jaligida olib borildi. Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasining markaziy tajriba xo'jaligi tog'li mintaqada bo'lib, dengiz sathidan 1650-1700 m balandlikda joylashgan, yillik yog'ingarchilik miqdori 400-700 mm ba'zan yog'ingarchilik seryog'in kelgan yillari undan ham yuqor bo'ladi. Yillik o'rtacha havo-harorati 10,1 °C ni tashkil qiladi. Tuprog'i eroziyaga o'rtacha va kuchli darajada chalingan bo'lib og'ir qumoqli to'q tusli bo'z tuproqlardan iborat.

Baxmal tumani tabiiy geografik jihatdan Jizzax viloyatidagi eng janubiy tuman bo'lib, janubda Turkiston tog' tizmasi orqali Tojikiston Respublikasi bilan (81,34 km), g'arbda Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani (30,86 km), shimolda G'allaorol (24,79 km) va Sharof Rashidov tumanlari (31,56 km), sharqda va shimoli-sharqda Morguzar tog' tizmasi bo'ylab Zomin tumani (75,77 km) bilan chegaradoshdir. Tuman chegarasining umumiy uzunligi 244,32 km bo'lib, shundan 160,27 km Chumqor va Morguzar suv ayirg'ichlariga to'g'ri kelsa, qolgan 84,09 km esa adir va baland tekisliklar orqali o'tkaziladi.

Baxmal tumani hududi, asosan Turkiston tog' tizmasining davomi hisoblangan Chumqor va Morguzar tog'lari orasida, Sangzor vodiysida joylashgan o'ziga xos hududdir. O'lkaning eng shimoliy nuqtasi 39°54' shimoliy kenglikda, Baxmal, G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlari chegaralari tutashgan joyiga to'g'ri kelsa, eng janubiy nuqtasi esa Chumqor tog' suvayirg'ichidan, ya'ni 39°33' janubiy kenglikdan o'tadi, shimoliy va janubiy chekka nuqtalari orasidagi masofa esa 38,9 km ni tashkil etadi.

Tumanning sharqiy va g'arbiy chekka nuqtalari deyarli bir kenglikda yotadi. Uning sharqiy chekka nuqtasi, hududning shimoli-sharqida, Morguzar tog'ining Turkiston tizmasidan ajragan qismida, ya'ni 68°20' sharqiy uzunlikda joylashgan bo'lsa, uning qarshi tomonida o'rin olgan eng chekka g'arbiy nuqtasi esa Zarafshon vodiysiga yaqin soyliklardan, 67°22' sharqiy uzunlikdan o'tib, chekka nuqtalari orasidagi masofa 83,6 km ni tashkil etadi. Baxmal tumani umumiy yer

maydoni 1864,37 kv km bo'lib, kattaligi jihatdan viloyatda Forish, Zomin, G'allaorol tumanlaridan keyingi 4-o'rinda turadi.

Tajriba dalasining agrokimyoviy tarkibi o'rganilganda gumus miqdori 0-20 sm qatlamda 1,283% ni, 20-40 sm qatlamda esa 1,201% tashkil etib, pastki qatlamga tushishi bilan kamayib borgan. Yalpi azot miqdori 0-20 va 20-40 sm qatlamda 0,085-0,081% ni, fosfor 0,115-0,146% ni va kaliy 1,28-1,13% yni tashkil etib pastgi qatlamlarda kamaygani aniqlangan. Tajriba dalasida harakatchan shakldagi mineral o'g'itlar (nitratli azot, xarakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy) miqdori turlicha ekanligi aniqlandi. Bunga ko'ra tajriba dalasidagi nitratli azot miqdori 0-20 va 20-40 sm qatlamda tegishlicha 80,2-71,5 mg/kg ni, xarakatchan fosfor 15,0-12,0 mg/kg ni hamda almashinuvchi kaliy 276,9-240,8 mg/kg ni tashkil etib, pastgi qatlamga tushgan sari nitrat miqdori, xarakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdori kamligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Tajriba dalasi tuprog'ining agrokimyoviy tarkibi

Tuproq qatlamlari, sm	Gumus miqdori, %	Umumiy shakllari, %			Xarakatchan shakli, mg/kg		
		N	P ₂ O ₅	K ₂ O	N-NO ₃	P ₂ O ₅	K ₂ O
0-20	1,283	0,085	0,155	1,28	80,2	15,0	276,9
20-40	1,201	0,081	0,146	1,13	71,5	12,0	240,8

Lalmikor mintaqalar 5 ta yirik geografik okrugga bo'linadi: O'rta Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona. Har bir geografik okrugda relefga bog'liq ravishda vertikal tuproq-iqlim mintaqalari bo'yicha quyidagicha joylashgan: tekislik, tekislik-qir-adirlik, tog' oldi va tog'li mintaqqa. Ushbu mintaqalar bir-biridan dengiz sathidan ko'tarilgan sayin nisbiy namlikning yuqori bo'lishi, havo haroratining pasayishi, sovuqsiz kunlar sonining qisqarib borishi, tuproq va o'simlik qoplamining o'zgarishi, tuproq unumdorligining oshib borishi, o'simliklar qoplamining ko'proq bo'lishi bilan farq qiladi.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqot davomida olingan natijalar Методика Государственного сортоиспытания Масличных культур (Выпуск третий 1983 г Москва), Qurg'oqchilikka chidamlilikni laboratoriya sharoitida N.I.Kojushka (1987) usulida, urug' tarkibidagi moy miqdorini aniqlash Сокслет ekstraksiyasi usulida aniqlangan.

Tadqiqotlarda olib borilgan agrotexnik tadbirlar DDEITI G'allaorol ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan (1994 y) ishlab chiqilgan tavsiya va uslublar asosida, fenologik kuzatuvlar, dala va laboratoriya sharoitida turli ko'rsatkichlar bo'yicha baholashlar, tahlillar qishloq xo'jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasi (1989 y) uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi. Matematik tahlillari Б.А.Доспехов (1985 y) da keltirilgan uslublardan foydalanilgan.

II-BOB. LALMIKOR MAYDONLAR SHAROITIDA XANTAL (*Sinapis alba* L) KOLLEKSIYA NAV VA NAMUNALARINI O'RGANISH BO'YICHA OLINGAN ILMIY-TADQIQOT NATIJALARI.

Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining o'suv davri davomiyligi. Lalmikor maydonlarda qishloq xo'jalik ekinlarining unib chiqishi, rivojlanish fazalarining davomiyligi juda ko'p omillarga, jumladan har bir mintaqaning tuproq iqlim sharoiti, shu mintaqada kuz oylarida bo'ladigan yog'in sochin miqdori, tuproq namligi, unumdorligi, havo harorati, yorug'lik, navning biologiyasi va qo'llaniladigan agrotexnologik tadbirlarga bog'liq.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish davomida Rossiyaning B.C.Пустовойт nomidagi moyli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutidan keltirilgan 30 ta kolleksiya nav namunalaridan ekilib, qimmatli xo'jalik belgi va xususiyatlari bo'yicha o'rganildi hamda qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan nav namunalari ajratilib olindi va seleksiya tadqiqotlariga jalb etildi.

Nav namunalarning o'suv davri davomiyligi bo'yicha tahlil qilinganda andoza "Nika" navida unib chiqish-shoxlanish davri 33 kunni, unib chiqish-gullash davri 51 kunni, unib chiqish-qo'zoqlash davri 74 kunni, unib chiqish-pishish davri 95 kunni tashkil qilib, andoza navga nisbatan, KGL-6, KGL-14, KGL-1 va KGL-17 nav namunalarida unib chiqish-shoxlanish davri 30-34 kunni, unib chiqish gullash davri 48-52 kunni, unib chiqish-qo'zoqlash davri 70-72 kunni hamda unib chiqish-pishish davri 90-93 kunni tashkil qildi. Ushbu o'rganilgan nav namunalar andoza "Nika" naviga nisbatan 2-5 kungacha pishish muddati erta kuzatilib, ertapish manbalar sifatida seleksiya tadqiqotlarida foydalanish uchun tanlab olindi. (2.1-jadval).

Xantal (*Sinapis alba* L) kolleksiya nav va namunalarining o'suv davri davomiyligi, Baxmal 2018-2019 yy.

No	Nav va namunalar nomi	Unib chiqish-shoxlanish, kun	Unib chiqish-gullash, kun	Unib chiqish-qo'zoqlash, kun	Unib chiqish-pishish, kun
1	Nika (andoza)	33	51	74	95
2	KGL-1	31	51	74	96
3	KGL-2	32	50	73	94
4	KGL-3	33	53	72	95
5	KGL-4	32	49	71	96
6	KGL-5	31	49	72	94
7	KGL-6	30	51	72	93
8	KGL-7	34	50	75	97
9	KGL-8	32	50	72	99
10	KGL-9	33	53	76	95
11	KGL-10	31	51	74	95
12	KGL-11	32	50	75	96
13	KGL-12	32	51	76	95
14	KGL-13	31	49	70	93
15	KGL-14	33	53	75	96
16	KGL-15	30	48	71	90
17	KGL-16	34	52	72	91
18	KGL-17	31	53	74	94
19	KGL-18	32	52	70	95
20	KGL-19	33	52	75	98

Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining hosil elementlari. Xantal nav namunalari hosil elementlari bo'yicha tahlil qilinganda andoza "Nika" navida bitta o'simlikdagi hosil shoxlari 9,3 dona, bitta o'simlikdagi qo'zoqchalar soni 139,5 dona, bitta o'simlikdagi qo'zoq uzunligi 3,3 sm ni, bitta qo'zoqchadagi urug'soni o'rtacha 11,4 donani, 1 m² urug' hosildorligi o'rtacha 74,4 g bo'lib, andoza navga nisbatan o'rganilgan KGL-1, KGL-3, KGL-4, KGL-6, KGL-11 va KGL-12 nav namunalarida bitta o'simlikdagi hosil shoxlari o'rtacha 9,9-11,9 dona, bitta o'simlikdagi qo'zoqchalar soni o'rtacha 148,5-167,3 dona, bitta o'simlikdagi qo'zoq uzunligi o'rtacha 3,1-3,8 sm ni, bitta qo'zoqchadagi urug'soni o'rtacha 12,1-12,9 donani, 1 m² urug' hosildorligi o'rtacha 83,3-95,0 g ni tashkil qildi,

hamda ushbu namunalar hosil elementlari yuqoriligi bo'yicha boshlang'ich manbalar sifatida seleksiya jarayonida foydalanish uchun tanlab olindi (2.2-jadval).

2.2-jadval

Xantal (*Sinapis alba L*) kolleksiya nav namunalarining asosiy hosil elementlari va ular o'rtasida o'zaro korrelyatsion bog'liqlik,

Baxmal 2018 yil

№	Nav namuna nomi	Bitta o'simlikdagi hosil shoxlar soni, dona	Bitta o'simlikdagi qo'zoqchalar soni, dona	Bitta o'simlikdagi qo'zoq uzunligi, sm	Bitta qo'zoqcha-dagi urug' soni, Dona	Urug' hosildorligi, g/1 m²
1	Nika (andoza)	9,3	139,5	3,3	11,4	74,4
2	KGL-1	9,9	148,5	3,8	12,2	83,3
3	KGL-2	9,6	144,5	3,6	11,5	73,1
4	KGL-3	10,4	156,1	3,2	12,1	86,9
5	KGL-4	11,9	158,5	3,5	12,4	90,4
6	KGL-5	8,4	126,3	3,4	10,5	55,7
7	KGL-6	10,1	151,5	3,1	12,3	89,4
8	KGL-7	10,4	156,1	3,4	12,6	74,7
9	KGL-8	9,7	145,5	2,6	11,9	65,8
10	KGL-9	9,1	135,4	3,1	11,3	73,4
11	KGL-10	9,5	142,5	3,5	11,4	68,2
12	KGL-11	10,3	154,5	3,3	12,3	87,4
13	KGL-12	11,8	167,3	3,1	12,9	95,0
14	KGL-13	8,3	124,5	3,3	10,8	59,2
15	KGL-14	10,1	151,1	3,1	12,4	86,2
16	KGL-15	10,3	154,5	3,3	12,5	92,7
17	KGL-16	9,6	144,8	2,5	11,9	79,3
18	KGL-17	9,2	138,2	3,2	11,6	73,7
19	KGL-18	9,6	144,3	2,3	11,9	82,4
20	KGL-19	9,1	136,5	3,1	11,3	64,8
Bitta o'simlikdagi hosil shoxlar va hosildorligi						r=0,83
Bitta o'simlikdagi qo'zoqchalar soni va hosildorligi						r=0,87
Qo'zoqcha uzunligi va hosildorlik						r=0,77
Bitta qo'zoqchadagi urug' soni va hosildorlik						r=0,88

Shuningdek hosil elementlari hamda hosildorlik o'rtasida korrelyatsion bog'lanish tahlil qilinganda bitta o'simlikdagi hosil shoxlar va hosildorligi o'rtasida ($r=0,83$), bitta o'simlikdagi qo'zoqchalar soni va hosildorligi o'rtasida ($r=0,87$), qo'zoqcha uzunligi va hosildorlik o'rtasida ($r=0,77$) va bitta

qo'zoqchadagi urug' soni va hosildorlik o'rtasida ($r=0,88$) ijobiy korrelyatsion bog'liqligi borligi aniqlandi.

Xantal (*Sinapis alba* L) namunalarining o'simlik bo'yi, 1000 dona urug' vazni va hosildorlik ko'rsatgichlari. Xantal namunalarining o'simlik bo'yi, 1000 dona urug' vazni va hosildorlik ko'rsatgichlari o'rganilganda andoza Nika navida o'rtacha 88,2 sm ni, 1000 dona urug' massasi o'rtacha 1,9 g ni, urug' hosildorligi o'rtacha 74,4 g bo'lib, andozaga nisbatan o'rganilgan KGL-1, KGL-2, KGL-6, KGL-7, KGL-8, KGL-11, KGL-13, KGL-15, KGL-16 nav namunalarida o'simlik bo'yi 90,2-96,6 sm , (2.3-jadval),

2.3-jadval

Xantal (*Sinapis alba* L) namunalarining o'simlik bo'yi, 1000 dona urug' vazni va hosildorlik ko'rsatgichlari (Baxmal 2018-2019 yy.)

№	Nav namuna nomi	O'simlik bo'yi, (sm)	1000 dona urug' massasi (g)	Urug' hosildorligi 1 m ² , g
1	Nika (andoza)	88,2	1,9	74,4
2	KGL-1	91,3	2,3	83,3
3	KGL-2	90,2	1,9	73,1
4	KGL-3	78,4	1,9	86,9
5	KGL-4	80,8	2,1	90,4
6	KGL-5	84,6	2,1	55,7
7	KGL-6	93,5	2,0	89,4
8	KGL-7	90,1	1,9	74,7
9	KGL-8	99,2	1,9	65,8
10	KGL-9	82,1	1,8	73,4
11	KGL-10	80,8	1,9	68,2
12	KGL-11	92,2	2,3	87,4
13	KGL-12	83,6	2,2	95,0
14	KGL-13	96,6	2,2	59,2
15	KGL-14	88,9	1,9	86,2
16	KGL-15	99,3	2,1	92,7
17	KGL-16	90,8	1,9	79,3
18	KGL-17	72,6	1,9	73,7
19	KGL-18	81,6	2,0	82,4
20	KGL-19	86,9	1,8	64,8
O'simlik bo'yi va hosildorlik o'rtasida				r=0,72
1000 dona urug' massasi va hosildorlik				r=0,64

1000 dona urug‘ massasi bo‘yicha KGL-1, KGL-5, KGL-7, KGL-12, KGL-13, KGL-15, KGL-16 va KGL-19 namunalarida 2,0-2,3 g , urug‘ hosildorligi bo‘yicha KGL-1, KGL-4, KGL-5, KGL-6, KGL-11, KGL-12, KGL-14, KGL-15, KGL-16 va KGL-18 nav namunalari 82,4-95,0 g ni tashkil etdi (2.3-jadval).


Ushbu nav namunalar o‘simlik bo‘yi, 1000 dona urug‘ massasi yuqori nav namunalar siqatida tanlab olinib, seleksiya tadqiqotlariga jalb etildi.

Shuningdek o‘simlik bo‘yi, 1000 dona urug‘ massasi va hosildorlik o‘rtasida korrelyatsion bog‘lanishi tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasida o‘simlik bo‘yi va hosildorlik o‘rtasida ($r=0,72$) hamda 1000 dona urug‘ massasi va hosildorlik o‘rtasida ($r=0,64$) ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik borligi aniqlandi.

Tadqiqotlar natijasida lalmikor maydonlar uchun tashqi muhitning noqulay omillariga chidamli, serhosil, tarkibida moy miqdori yuqori, andoza navga nisbatan 10-15% ko‘p hosil beradigan xantalning yangi “Baxmal-70” navi yaratildi (2.1-rasm).

2.4-rasm

Xantal (*Sinapis alba L*)ning “Baxmal-70” navi yaratilish bosqichlari.



Xantalning yangi yaratilgan “Baxmal-70” navi 2024-2025 yillarda respublikamizning turli hududlaridagi tuproq-iqlim sharoitlarida ekilib, sinov tadqiqotlariga ko‘ra hosildorlik ko‘rsatkichlari G‘allaorol tumanida 7,1 s/ga, Qamashi tumanida 6,9 s/ga hamda Baxmal tumanida 7,6 s/ga ni tasgkil etdi (2.4-jadval).

2.4-jadval

Xantalning “Baxmal-70” navini turli hududlardagi hosildorlik ko‘rsatkichlari

№	Hududlar nomi	Hosildorlik ko‘rsatkichlari s/ga.
1	G‘allaorol	7,1 s/ga
2	Qamashi	6,9 s/ga
3	Baxmal	7,6 s/ga

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki yangi yaratilgan “Baxmal-70” navining o‘sov davri davomiyligi bo‘yicha andoza “Nika” naviga nisbatan uch yillik natijalarga ko‘ra o‘rtacha 4 kunga ertapishar ekanligi, o‘simlik bo‘yi (2.5-jadval)

2.5-Jadval

Xantalning “Baxmal-70” navi qimmatli xo‘jalik va biologik xususiyatlari (Baxmal 2021-2023 yy)

№	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2021	2022	2023	O‘rtacha
Baxmal-70						
1	O‘sov davri	kun	85	89	90	88
2	O‘simlik bo‘yi	sm	100,5	105,7	107,8	104,7
3	Shoxlar soni	dona	10,5	11,5	14,0	12,0
4	Qo‘zoqlar soni	dona	194	201	201	200
5	Qo‘zoqlar urug‘ soni	dona	12,5	13,4	14,5	13,5
6	1000 dona urug‘ vazni	G	2,2	2,3	2,5	2,3
7	Hosildorlik	s/ga	8,2	9,4	9,8	9,1
Nika (andoza)						
1	O‘sov davri	kun	90	93	94	92
2	O‘simlik bo‘yi	sm	84,5	86,9	91,3	87,6
3	Shoxlar soni	dona	8,1	9,0	11,2	9,4
4	Qo‘zoqlar soni	dona	140	144	151	145
5	Qo‘zoqlar urug‘ soni	dona	9,0	11,0	13,0	11,0
6	1000 dona urug‘ vazni	g	1,9	2,1	2,3	2,1
7	Hosildorlik	s/ga	6,5	6,9	7,4	6,9

17,1 sm, bitta o'simlikdagi shoxlar soni 2,6 taga, bitta o'simlikdagi qo'zoqlar soni 55 donaga, bitta qo'zoqdagi urug' soni 2,6 donaga, 1000 dona urug' vazni 0,2 g va hosildorlik bo'yicha 2,2 s/ga yuqori ekanligi tajribalarda aniqlandi (2.5-jadval).

Yaratilgan navning moydorlik ko'rsatkichlari. Taxlillar olib borilgan Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti Donli ekinlar seleksiyasi laboratoriyasining (2021-2023 yy) sinov dalolatnomasi ma'lumotlariga ko'ra andoza nav sifatida olingan "Nika" navi tarkibida moy miqdori o'rtacha 35,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, "Baxmal-70" navi tarkibidagi moy miqdori o'rtacha 38,1 foizni tashkil etib, andoza navga nisbatan 3,0 foiz qo'shimcha olinayotgan moy hisobiga iqtisodiy samaradorlikning ko'tarilishiga erishildi.

Jumladan, 2021 yilda olib borilgan tadqiqotlar natijasida xantalning andoza "Nika" naviga nisbatan yangi yaratilgan "Baxmal-70" navida urug' tarkibidagi moy miqdori 3,7 foizga yuqori bo'lganligi kuzatildi va 2022-2023 yillarda ham shu ko'rsatkichlar andoza "Nika" naviga nisbatan 3,0-3,5 foizga yuqori natijalar olinganligi aniqlandi (2.6-jadval).

Keyingi yillarda tadqiqotlar davom ettirilib, mazkur yillarda ham urug'chilik ishlarining to'g'ri tashkil etilganligi va mutloq sof urug' ajratib olinganligi sababli navning urug' tarkibidagi moy miqdori yuqoriligi bilan farqlandi. Iqlim sharoitining qulay kelganligi hamda etishtirish agrotexnikasini takomillashtirish natijasida yildan-yilga urug' tarkibidagi moy miqdori o'rtacha 1,0 foizga oshganligi kuzatildi.

2.6-jadval

Xantalning Baxmal-70 navini moy chiqish miqdori, (Baxmal 2021-2023 yy)

№	Nav nomi	Urug' tarkibidagi moy miqdori, %				Andoza navga nisbatan moy chiqishi farqi, %	
		2021	2022	2023	O'rtacha	Nika	Baxmal-70
1	Nika (andoza)	34,1	34,6	35,3	35,1	-	3,0
2	Baxmal-70	37,8	38,1	38,4	38,1		

Izoh: JDITI laboratoriyasi tahlil bayonnomasi ilova qilinadi.

Raqobat nav sinash maydonida nav va namunalarning o'suv davri davomiyligi. Xantal (*Sinapis alba* L) ning raqobat nav sinov tajriba maydonida jami 10 ta nav va namunalar 3 qaytariq, 2 ta yarus, 1 ta paykalcha maydoni 25 m² xisobida joylashtirildi. Nav va namunalarning ekish me'yori gektariga 2,5 mln dona unuvchan urug' hisobida amalga oshirildi. Tajribalarda o'rganilayotgan nav va namunalarning o'suv davri davomiyligi, hosil elementlari va hosildorligi hamda boshqa qimmatli xo'jalik belgilari bo'yi cha andoza "Nika" naviga taqqoslab o'rganildi.

O'suv davri davomiyligi o'rganilganda andoza "Nika" navida unib chiqish-shoxlanish davri 30 kun, unib chiqish-gullash davri 48 kun, unib chiqish-qo'zoqlash davri 74 kun hamda unib chiqish-pishish davri 92 kunni tashkil qilib, andoza navga nisbatan Arletta, Bella, Bravo, Kristal, №5/2019, №1/2019, №3/2019, №4/2019 va №9/2019 nav namunalarida unib chiqish-shoxlanish davri 9-31 kunni, unib chiqish-gullash davri 46-49 kunni, unib chiqish-qo'zoqlash davri 72-79 kunni, unib chiqish-pishish davri esa 88-96 kungacha ekanligi tadqiqotlar davomida aniqlandi (2.7-jadval).

2.7-Jadval

Xantal (*Sinapis alba* L) nav va namunalarining o'suv davri davomiyligi, (Baxmal 2021-2023 yy.)

№	Nav va namunalar nomi	Unib chiqish-shoxlanish, kun	Unib chiqish-gullash, kun	Unib chiqish-qo'zoqlash, kun	Unib chiqish-pishish, kun
1	Nika (andoza)	30	48	74	92
2	Arletta	31	47	72	93
3	Bella	30	46	75	92
4	Bravo	31	48	78	96
5	Kristal	31	49	76	94
6	№5/2019	29	46	73	88
7	№1/2019	31	48	79	95
8	№3/2019	30	48	77	95
9	№4/2019	30	49	76	91
10	№9/2019	29	48	75	91

Olingan natijalarga ko‘ra №5/2019 namunasi andoza “Nika” naviga nisbatan unib chiqish-shoxlanish davri 1 kunni, unib chiqish-gullash davri 2 kunni, unib chiqish-qo‘zoqlash davri 1 kunni va unib chiqish-pishish davri 4 kunga erta ekanligi aniqlandi (2.7-jadval).

Raqobat nav sinov maydonida Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining qurg‘oqchilikka chidamlilik ko‘rsatgichlari. Tadqiqotlarda xantal nav namunalarining qurg‘oqchilikka chidamliligi laboratoriya sharoitida o‘rganildi. Olingan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, urug‘larning unib chiqish ko‘rsatkichi nazorat sharoitida pastki ko‘rsatkich Kristal navida 83 foizni tashkil etgan bo‘lsa, andoza navda 87 foizni, eng yuqori ko‘rsatkich esa Bravo va №5/2019 nav namunalarida kuzatilib 90 foiz ni tashkil etganligi kuzatildi. Saxaroza eritmasida bu ko‘rsatkichlar sezilarli darajada pasayib pastki ko‘rsatkich 68 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, Bravo va №5/2019 nav namunalarida tegishli ravishda 75-73 foizni tashkil etdi. Eng past ko‘rsatkich Bella (68 foiz) navida qayd etilgan.

2.8-jadval

Raqobat nav sinash maydonidagi Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining qurg‘oqchilikka chidamlilik ko‘rsatgichlar (Baxmal 2021-2023yy.).

№	Navlar nomi	Unib chiqqan urug‘, (%)		Ildizchalar soni, (dona)		Ildizchalar uzunligi (sm)	
		Nazorat	Saxar oza	Nazorat	Saxar oza	Nazorat	Saxar oza
1	Nika (andoza)	87	69	3,7	3,1	5,3	2,3
2	Arletta	88	71	3,9	3,2	5,9	2,2
3	Bella	84	68	3,5	3,0	5,1	1,9
4	Bravo	90	75	4,4	3,1	6,5	3,1
5	Kristal	83	74	3,8	3,2	4,2	2,7
6	№5/2019	90	73	4,0	3,3	6,5	3,2
7	№1/2019	85	68	4,5	3,2	5,2	2,3
8	№3/2019	85	73	3,3	3,1	3,1	2,7
9	№4/2019	87	74	4,0	2,9	4,5	2,4
10	№9/2019	89	73	3,5	3,3	5,1	2,5
Past ko‘rsatkich		83	68	3,2	2,9	3,1	1,9
O‘rtacha ko‘rsatkich		86,4	71,3	3,7	3,1	5,0	2,5
Yuqori ko‘rsatkich		90	75	4,5	3,3	6,5	3,2

Ildizchalar soni ham nazorat va saxaroza variantlari o'rtasida keskin farqlandi. Nazorat sharoitida o'rtacha 3,7 dona, saxaroza eritmasida 3,1 dona ildizchalar hosil bo'ldi. Eng yuqori ko'rsatkich №1/2019 navida kuzatilib, nazoratda 4,5 dona, saxarozada 3,2 donani tashkil etdi.

Ildizchalar uzunligidagi nazorat variantida o'rtacha 5,0 sm bo'lgan ildiz uzunligi, saxarozada ikki barobarga kamayib 2,5 sm/ni tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich №5/2019 namunasida (nazorat-6,5 sm, saxaroza eritmasida-3,2 sm) kuzatildi. Eng past ko'rsatkich Bella navida (nazoratda-6,1 sm, saxaroza eritmasida-1,9 sm) kuzatildi (2.8-jadval).

Saxaroza muhitida urug'larning unib chiqishi, ildizchalar soni va uzunligi sezilarli darajada kamayganligi aniqlandi. Bu holatda o'rganish o'simliklarning suv tanqisligi va stress sharoitiga chidamliligini baholashda muhim biologik ko'rsatkich hisoblanadi.

Raqobat nav sinovi maydonida o'rganilgan Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining hosil elementlari. Tadqiqotlar davomida o'rganilgan nav va namunalarda o'simlik bo'yi tahlil qilinganda 79,3-107,4 sm ni tashkil etdi. O'simlik bo'yi andoza "Nika" navida 87,6 sm, №5/2019 namunasida 104,7 sm bo'lib, andozaga nisbatan 17,1 sm uzun bo'lgani aniqlandi. Bitta o'simlikdagi hosil shoxlari bo'yicha o'rganilganda o'rtacha 8,6-12,1 donagacha, andoza Nika navida 9,4 dona, №5/2019 (Baxmal-70) 12,1 dona bo'lib, andoza navga nisbatan 2,7 dona ko'p bo'ldi. Bitta o'simlikdagi qo'zoqchalar soni tahlil qilinganda o'rtacha 145,1-200,1 donagachani tashkil etib, andoza Nika naviga nisbatan qo'zoqchalar soni №5/2019 namunasida 55,1 dona ko'pligi aniqlandi.

O'simlikdagi qo'zoqcha uzunligi o'rganilganda o'rtacha 3,0-4,2 sm gacha bo'lib, andoza Nika naviga nisbatan qo'zoqcha uzunligi №5/2019 namunasida 1,2 sm uzun bo'ldi. Bitta qo'zoqchadagi urug' soni bo'yicha tahlil qilinganda o'rtacha 10,4-13,5 donagacha, andoza Nika navida o'rtacha bitta qo'zoqchadagi urug' soni 11,1 dona, №5/2019 namunasida o'rtacha 13,5 dona urug' bo'lib, andozaga nisbatan 2,4 dona urug' ko'pligi aniqlandi. 1000 dona urug' vazni bo'yicha o'rganilganda o'rtacha 1,8-2,3 g/gachani tshkil etgan bo'lsa, bu

ko'rsatgich andoza Nika navida 2,1 g, №5/2019 namunasida 2,3 g, andoza navga nisbatan 0,2 g yuqoriligi aniqlandi (2.9 jadval).

Raqobat nav sinovi maydonida Xantal (*Sinapis alba* L) nav va namunalarining hosildorlik elementlari
(Baxmal 2021-2023 yy.)

№	Nav va namunalar nomi	O‘simlik bo‘yi (sm)	Bitta o‘simlikda xosil shoxlar soni, dona	Bitta o‘simlikdagi qo‘zoqchalar soni, dona	O‘simlikdagi qo‘zoq uzunligi, sm	Bitta qo‘zoqchadagi urug‘ soni, dona	1000 dona urug‘ massasi (g)
1	Nika (andoza)	87,6 ± 0,9	9,4 ± 0,4	145,1 ± 1,0	3,0 ± 0,3	11,1 ± 0,2	2,1 ± 0,04
2	Arletta	85,9 ± 1,1	10,1 ± 0,5	149,2 ± 1,2	3,3 ± 0,6	11,7 ± 0,4	2,1 ± 0,03
3	Bella	86,5 ± 0,8	9,8 ± 0,3	185,6 ± 0,9	3,8 ± 0,4	12,8 ± 0,3	1,9 ± 0,05
4	Bravo	82,3 ± 0,7	10,6 ± 0,2	155,8 ± 0,7	3,5 ± 0,7	12,4 ± 0,4	1,8 ± 0,04
5	Kristal	91,2 ± 1,0	8,6 ± 0,5	166,6 ± 1,3	3,0 ± 0,2	10,6 ± 0,5	2,1 ± 0,05
6	№5/2019	104,7 ± 1,2	12,1 ± 0,6	200,4 ± 1,0	4,2 ± 0,6	13,5 ± 0,6	2,3 ± 0,07
7	№1/2019	89,4 ± 0,8	10,3 ± 0,4	162,5 ± 0,8	4,0 ± 0,1	11,8 ± 0,5	2,0 ± 0,04
8	№3/2019	80,6 ± 0,9	10,6 ± 0,4	163,7 ± 1,1	3,5 ± 0,4	10,4 ± 0,3	1,8 ± 0,07
9	№4/2019	79,3 ± 1,1	9,9 ± 0,5	167,2 ± 0,7	3,6 ± 0,3	12,6 ± 0,6	2,0 ± 0,04
10	№9/2019	90,8 ± 0,9	9,2 ± 0,3	167,8 ± 0,9	3,6 ± 0,5	12,3 ± 0,2	1,8 ± 0,03

Raqobat nav sinovi maydonida o'rganilgan Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining hosildorlik ko'rsatkichlari. Ma'lumki qishloq xo'jalik ekinlarida hosildorlik asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Xantal nav namunalarining hosildorligi andoza Nika navida o'rtacha 6,9 s/ga, nazoratga nisbatan Arletta navida o'rtacha 6,7 s/ga, Balla navida 8,2 s/ga, Bravo navida 7,6 s/ga, Kristal navida 7,3 s/ga, №5/2019 namunasida 9,1 s/ga, №1/2019 namunasida 7,5 s/ga, №3/2019 namunasida 6,5 s/ga, №4/2019 namunasida 7,9 s/ga va №9/2019 namunasida o'rtacha 7,7 s/ga hosil olinib, andoza navga nisbatan №5/2019 (Baxmal-70) navida 2,2 s/ga gacha yuqoriligi kuzatildi (2.10-jadval).

2.10-jadval

Raqobat nav sinovi maydonida Xantal (*Sinapis alba* L)ning hosildorlik ko'rsatkichlari, Baxmal 2021-2023 yy

№	Nav va namunalar nomi	Hosildorlik, s/ga			O'rtacha hosildorlik, s/ga
		2021	2022	2023	
1	Nika (andoza)	6,5	6,9	7,4	6,9
2	Arletta	6,0	6,9	7,4	6,7
3	Bella	7,4	8,2	8,9	8,2
4	Bravo	6,9	7,8	8,2	7,6
5	Kristal	6,5	7,4	8,0	7,3
6	№5/2019	8,2	9,4	9,8	9,1
7	№1/2019	6,6	7,8	8,1	7,5
8	№3/2019	5,9	6,5	7,1	6,5
9	№4/2019	6,9	8,1	8,8	7,9
10	№9/2019	6,5	8,0	8,7	7,7
EKMF05 = s/ga		0,12	0,48	0,73	

Raqobat nav sinovi maydonida Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining tarkibidagi moy miqdori ko'rsatkichlari. Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining tarkibidagi moy miqdori tahlil qilinganda andoza "Nika" navida uch yillik moy miqdori o'rtacha 3,5 g (35,1 foiz) ni, andozaga nisbatan o'rganilgan Arletta navida o'rtacha 3,7 g (37,3 foiz), Bella navida 3,7 (37,2 foiz), Bravo navida 3,4 g (34,0 foiz, Kristal navida 3,6 g (36,2 foiz), №5/2019

namunasida 3,89 g (38,1 foiz), №1/2019 namunasida 3,5 g (35,0 foiz), №3/2019 namunasida 3,6 g (36,1 foiz), №4/2019 namunasida 3,3 g (33,1 foiz) va №9/2019 namunasida 3,6 (36,2 foiz) ni tashkil qilib, andozaga nisbatan Arletta nivi 0,2 g (2,2 foiz), Bella navi 0,2 (2,1 foiz) hamda №5/2019 namunasida 0,3 g (3,0 foiz) yuqori moy chiqishi aniqlandi (2.11-jadval).

2.11-Jadval

Raqobat nav sinovi maydonida Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining tarkibidagi moy miqdori ko'rsatkichlari, Baxmal 2021-2023 yy

T/r	Nav namunalar nomi	O‘simlikdagi moy miqdori						O‘rtacha uch yillik moy miqdori	
		2021 yil		2022 yil		2023 yil			
		(g)	%	(g)	%	(g)	%	(g)	%
1	Nika (andoza)	3,4	34,1	3,5	34,6	3,5	35,3	3,5	35,1
2	Arletta	3,7	36,8	3,8	37,5	3,8	37,7	3,7	37,3
3	Bella	3,6	36,2	3,7	37,2	3,8	38,1	3,7	37,2
4	Bravo	3,3	33,4	3,4	34,2	3,5	34,5	3,4	34,0
5	Kristal	3,6	35,9	3,6	36,1	3,7	36,7	3,6	36,2
6	№5/2019	3,8	37,8	3,8	38,1	3,8	38,4	3,8	38,1
7	№1/2019	3,4	34,4	3,5	34,6	3,5	35,3	3,5	35,0
8	№3/2019	3,6	35,7	3,6	36,2	3,6	36,3	3,6	36,1
9	№4/2019	3,3	32,7	3,3	32,9	3,3	32,9	3,3	33,1
10	№9/2019	3,6	35,5	3,6	36,1	3,7	36,9	3,6	36,2

Raqobat nav sinash maydonidagi Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining o'simlikdagi hosil elementlari, hosildorligi va moy chiqish miqdori o'rtasida korrelyatsion bog'liqligi. Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra o'simlik bo'yi bilan 1000 dona urug' massasi ($r=0,673$), hosildorlik o'rtasida ($r=0,622$), moy chiqimi ($r=0,646$) ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjud ekanligi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, o'simlik bo'yi qanchalik baland bo'lsa, urug'lar

shunchalik og'ir va ulardan olinadigan hosil va moy miqdori shunchalik ko'p bo'lishi mumkin.

O'simlikdagi qo'zoqchalar soni bilan qo'zoq uzunligi o'rtasida ($r=0,729$), qo'zoqchadagi urug' soni ($r=0,629$) va hosildorlik o'rtasida ($r=0,856$) kuchli bog'liqlikka ega. Bu xantal hosildorligini oshirishda o'simlikdagi qo'zoqchalar soni muhim ro'l o'ynashini ko'rsatadi.

Qo'zoq uzunligi bilan qo'zoqchagi urug' soni o'rtasida ($r=0,726$), hosildorlik bilan ($r=0,719$) va moy chiqimi ($r=0,758$) bilan yuqori darajada, 1000 dona urug' vazni bilan esa ($r=0,279$) kuchsiz bog'liqlik bor.

Qo'zoqchagi urug' soni hosildorlik bilan ($r=0,874$) kuchli, 1000 dona urug' vazni bilan ($r=0,189$) va moy chiqimi bilan ($r=0,239$) kuchsiz bog'liqlik bor.

1000 dona urug' massasi bilan hosildorlik ($r=0,343$) va moy chiqimi o'rtasida ($r=0,310$) kuchsiz bog'liqlik bor. Shuningdek hosildorlik va moy chiqimi o'rtasida ham ($r=0,251$) kuchsiz korrelyatsion bog'liqlik borligi tajribada aniqlandi.

Ushbu korrelyatsiya natijalari shuni ko'rsatadiki, Xantal (*Sinapis alba* L) navining hosildorligini oshirish uchun birinchi navbatda o'simlikdagi qo'zoqcha soni va qo'zoqchagi urug' soniga e'tibor qaratish lozim. Bu ko'rsatkichlarni yaxshilash hosilni sezilarli darajada oshirishga olib keladi (2.12-jadval).

2.12-Jadval

Raqobat nav sinash maydonidagi Xantal (*Sinapis alba* L) nav namunalarining hosil elementlari, hosildorligi va moy chiqish miqdori o'rtasida korrelyatsion bog'liqligi,

Baxmal 2021-2023 yy.

	O'simlik bo'yi	O'simlikdagi qo'zoqcha soni	Qo'zoq uzunligi	Qo'zoqchadagi urug' soni	1000 dona urug' vazni	Hosildorlik	Moy chiqimi
O'simlik bo'yi		0,617	0,413	0,389	0,673	0,622	0,646
O'simlikdagi qo'zoqcha soni			0,729	0,629	0,279	0,856	0,476
Qo'zoq uzunligi				0,726	0,279	0,719	0,758
Qo'zoqchadagi urug' soni					0,189	0,874	0,239
1000 dona urug' vazni						0,343	0,310
Hosildorlik							0,251
Moy chiqimi							

III-BOB. XANTAL (*Sinapis alba* L) NING “BAXMAL-70” NAVINI YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.

Qishloq xo‘jaligida xar qanday yangi yaratilgan nav fermer xo‘jaliklarda yuqori samaradorlikka ega bo‘lmasa, uni ishlab chiqarish qabul qilmaydi. Shuni inobatga olib, xantalning o‘rganilgan nav namunalari ichidan qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan va Davlat reestriga kiritilgan “Baxmal-70” navini iqtisodiy samaradorligini aniqladik. Ushbu yangi navlarni etishtirish uchun qilingan barcha agrotexnologik tadbirlar texnologik kartaga va tavsiyalarga muvofiq amalga oshirildi.

Xantal yetishtirish uchun avvalo xantal ekiladigan joy ekishga tayyorlandi. Yerni tayyorlashda shudgorlash, baronalash, urug‘, o‘g‘it va parvarishlash hamda boshqa xarajatlar uchun gektariga 2195,9 ming so‘m, hosilni yig‘ishtirish va manziliga yetkazish uchun transport xarajatlari 450,0 ming so‘m, shu bilan birgalikda ustama

3.13-jadval

Xantalning yangi Baxmal-70 navini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi, ming so‘m/ga (2023-2024 yy.)

Ko‘rsatkichlar	Nika (andoza) nav	Baxmal-70
Urug‘, o‘g‘it, parvarishlash	2 195 923	2 195 923
Hosilni yig‘ishtirish va transport xarajatlari	450 000	450 000
Jami xarajatlar:	2 645 923	2 645 923
Ustama xarajatlar, 25%	661 481	661 481
Kutilmagan xarajatlar 20%	529 185	529 185
Barcha xarajatlar:	3 836 588	3 836 588
Hosildorlik, s/ga	6,3	7,7
Hosilni narxi, ming so‘m	5544000	6776000
Sof foyda	1 707 412	2 939 412
mahsulot tannarxi	6089,8	4982,6
Rentabellik darajasi, %	44,5	76,6

va kutilmagan xarajatlar birgalikda barcha xarajatlarni tashkil etib 3836,5 ming so‘m/ga ni tashkil etdi. Yetishtirilgan xantalning 1 kg hosili uchun bozor

